

## Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025- yil yanvar-may oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-may oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami 5945,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 101,3% ni tashkil etdi.

#### Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>5945,4</b>	<b>101,3</b>
G'uzor tumani	305,3	63,4
Dehqonobod tumani	87,3	113,1
Qamashi tumani	101,9	108,2
Qarshi tumani	275,0	99,6
Koson tumani	284,0	106,4
Kitob tumani	297,8	113,0
Mirishkor tumani	56,5	118,2
Muborak tumani	167,9	44,3
Nishon tumani	348,8	169,3
Kasbi tumani	78,2	79,8
Ko'kdala tumani	22,8	112,0
Chiroqchi tumani	342,3	96,1
Shahrisabz tumani	126,6	133,0
Yakkabog' tumani	197,2	104,1
Qarshi sh.	1356,7	109,1
Shahrisabz sh.	238,8	111,1
<b>Taqsimlanmaydigan hajm</b>	<b>1658,3</b>	<b>106,4</b>

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025- yilning yanvar-may oylarida Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,0 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 150,6 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,8 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 11,2 % ulushni va 2024- yilning mos davriga nisbatan 123,0 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	140,5	184,6	329,7
<i>o'sish sur'ati, %</i>	117,3	187,9	116,6
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	3501,7	573,7	339,8
<i>o'sish sur'ati, %</i>	233,3	98,8	194,9
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	875,4	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	116,1	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

### III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-may oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1090,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 79,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 5,4 % ga kamayib, 18,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 48,3 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ni tashkil etgan holda 2874,2 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 33,3 % ni yoki 1981,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi.

#### Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxonalar turlari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1090,0</b>	<b>2874,2</b>	<b>1981,2</b>	<b>79,0</b>	<b>112,1</b>	<b>104,2</b>
G'uzor tumani	52,3	142,5	63,9	23,2	112,9	87,5
Dehqonobod tumani	2,3	189,1	53,7	97,4	113,0	105,8
Qamashi tumani	3,6	31,4	28,3	130,2	110,5	65,8
Qarshi tumani	33,1	70,0	44,3	65,4	109,9	95,7
Koson tumani	14,7	197,7	103,8	60,0	113,5	108,3
Kitob tumani	25,3	165,5	117,1	289,6	113,0	96,2
Mirishkor tumani	6,2	155,4	24,4	218,5	117,5	90,4
Muborak tumani	74,2	25,8	23,8	25,0	114,4	77,6
Nishon tumani	210,3	69,9	15,6	277,0	112,6	58,3
Kasbi tumani	4,8	123,0	32,9	130,1	95,7	69,9
Ko'kdala tumani	0,0	40,5	16,4	-	194,0	94,9
Chiroqchi tumani	65,6	6,4	86,6	85,7	99,4	95,1
Shahrisabz tumani	15,7	190,1	37,6	342,5	124,5	122,1
Yakkabog' tumani	4,8	73,4	69,4	58,8	111,9	80,8
Qarshi sh.	422,1	123,0	68,8	94,4	116,3	171,4
Shahrisabz sh.	20,7	189,1	88,9	40,8	112,0	235,0
<b>Taqsimlanmaydigan hajm</b>	<b>134,4</b>	<b>418,1</b>	<b>1105,8</b>	<b>135,0</b>	<b>108,5</b>	<b>104,2</b>

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Shahrisabz tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 342,5%), Kitob tumanida (289,6%) va Mirishkor tumanida (218,5%) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Ko'kdala tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 194,0%), Shahrisabz tumani (124,5%) va Muborak tumanida (114,4%) kuzatildi.

#### **IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**

G. Ziyatova  
75 221-32-47 (7020)

**Manzil:**

180100, Qarshi shahri.,  
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy

---